XALQ DEPUTATLARI RISHTON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 18-iyul VII-11-54-11-158-K/25 Rishton tumani

Rishton tumanidagi 1 ta mahalla fuqarolar yig‘ini nomini o‘zbek tilida yozilishi qoidalari asosida normallashtirib, davlat reyestriga kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlarini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 295-sonli qarori hamda Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha respublika komissiyasi majlisining 2024-yil 10-maydagi 35-sonli bayonida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2025-yil 29-apreldagi 03/08-4491-son xati ilovasi bilan tasdiqlangan Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqidagi davlat ekspertizasi xulosasini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Rishton tuman Kengashi

QAROR QILADI :

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2025-yil 29-apreldagi **03/08-4491-son**xati ilovasi bilan tasdiqlangan Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqidagi davlat ekspertizasi xulosasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tumanda nomi o‘zgarayotgan hamda tasdiqlanayotgan mahalla ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman Statistika bo‘limi (O‘.Teshaboyev), tuman Qurilish bo‘limi (R.Ibrohimov) tuman hokimligi bilan birgalikda nomi o‘zgartirilgan mahalla fuqarolar yig‘inini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron baza shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Tuman Ichki ishlar bo‘limi (Sh.Mavlonov) nomi o‘zgartirilgan mahalla fuqarolar yig‘inida yashovchi aholining fuqarolik pasportlariga, mazkur hudud aks ettirilgan yo‘l belgilariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarini tashkiliy ravishda amalga oshirsin.

5. Tuman Qurilish bo‘limi (R.Ibrohimov) nomi o‘zgartirilgan mahalla fuqarolar yig‘inining yangi nomi yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma–bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

6.Tuman hokimligi axborot xizmati (A.Dexqonov)ga ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ishlarni tuman hokimligining veb saytida va “Rishton xaqiqati” gazetasida, shuningdek rasmiy internet-kanallar va ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish tavsiya etilsin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madiniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi rayisi, O‘zbekiston mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi boshlig‘i (X.Xojixonov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi XOLIKOV BAXODIR RAXMATULLAYEVICH

Xalq deputatlari Rishton tumani
Kengashining
2025-yil 18-iyuldagi
VII-11-54-11-158-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Farg‘ona viloyati, Rishton tumani hududida qayta nomlash va davlat reyestriga kiritilishi lozim bo‘lgan geografik obyekt
ro‘yxati

T/r	**Geografik obyekt ning turi**	**Geografik obyektning amaldagi nomi**	**Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif**
1	Mahalla	Nosgar	Do‘stlik